(2). Spears R.A. Phrases and Idioms. A practical Guide to American English Expressions. NTC Publishing Group, 1998, p. 305.
(3). https://slovarozhegova.ru/ozhegov.php

Abdullayeva Guliston Sultanovna (tadqiqotchi)

MUTRIB XONAXAROBIY SHE'RIYATI VA JADIDCHILIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan Mutrib Xonaxarobiyning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik ruhida yozilgan she'rlari tahlilga tortiladi. Shoirning yangicha o'qitish tizimi, hurriyat, ozodlik masalalari, yoshlar ma'rifati mavzusidagi she'rlarining g'oyaviy yo'nalishi, tasvir ko'lami, badiiyati qisqacha tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Mutrib Xonaxarobiy, Xorazm, adabiy muhit, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, maktab, ta'lim, maorif, yoshlar, hurriyat, mavzu, g'oya, badiiyat, mahorat.*

ПОЭЗИЯ МУТРИБА ХОНАХАРОБИ И ДЖАДИЗМ

Аннотация. *В данной статье анализируется поэзия Мутриба Хонахароби, жившего в Хорезме в конце XIX – начале XX века, в частности его стихи, проникнутые идеями просвещения и прогресса. Исследуется художественность, идейная направленность стихотворений о новой системе обучения, независимости, вопросах свободолюбия и просвещении молодежи.*

Ключевые слова*: Мутриб Хонахаробий, Хорезм, литературная среда, просветительство, прогрессивность, школа, обучение, просвещение, молодежь, свобода, тема, идея, художественность, мастерство.*

MUTRIB KHANAKHARABI'S POETRY AND JADIDISM

Annotation. *This article analyzes the poems written in the spirit of enlightenment and progressivism by Mutrib Khanakharabi, who lived in Khorezm in the late 19th – early 20th centuries. The poet's ideological direction, scope of images, and artistry of his poems on the topics of new education system, issues of freedom, freedom, and youth enlightenment are briefly explored.*

Key words: *Mutrib Khanakharabi, the literary environment of Khorezm, enlightenment, progress, school, education, youth, freedom, theme, idea, artistry, skill.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. Bu adabiy muhitda bir qancha iste'dod egalari kamolga yetdiki, ularning iqtidor ko'lami turlicha edi. Ular nafaqat mumtoz adabiy an'analar ta'sirida ijod qildilar, balki yangi zamon voqeligidan kelib chiqib ham yetuk asarlar yaratdilar. Ana shunday ijodkorlardan biri Mutrib Xonaxarobiy edi. U XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy sharoitdan kelib chiqib ijod qilar ekan, bir qancha ijtimoiy, ma'rifiy muammolarni qalamga oldi. Ta'lim tizimidagi muammolar xususida, yangicha taraqqiyotga intilmayotgan xalq ahvoli haqida qayg'urdi. Erk, ozodlik, hurriyat, yoshlar masalalari xususida she'rlar yozdi. Bu asarda davr muammolari hozirjavoblik bilan yoritilgani bilan ham dolzarblik kasb etadi. Mazkur she'rlarni yangicha mezonlar, istiqlol mafkurasi asosida o'rganishning ilmiy ahamiyati benihoya kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mutrib Xonaxarobiy ijodi borasida, uning shoirlik iqtidori xususida Ahmad Tabibiy, Hasanmurod Laffasiy, Po'latjon Qayyumiy, Bobojon Tarroh Xodim tazkiralarida ma'lumot beriladi [1;136–140-b.]. Adabiyotshunos M.Pirnazarov Mutrib Xonaxarobiy hayot yo'lini [2], matnshunos S.Madrimova shoir adabiy merosiga doir qo'lyozma va toshbosma manbalarni tadqiq etgan [3]. Tilshunos A.Allaberganova shoir asarlarining lingvopoetikasini o'rgangan [4]. Shuningdek, O.Sharofiddinov, N.Mallayev, M.Pirnazarov maqolalarida ham Mutrib hayoti, ijodi xususida muxtasar ma'lumotlar keltiriladi [5;28-b.]. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarda shoirning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik mavzusidagi she'rlari tahliliga keng o'rin berilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu kichik tadqiqot ishi davomida qiyosiy-tarixiy, struktural, germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mutrib Xonaxarobiy (1860–1923) ijodida yangicha ma'rifatparvarlik targ'ibiga keng o'rin ajratilgan. Uning bu mavzudagi she'rlarida yangi davr nafasi sezilib turadi. G'oya ifodasida da'vat ruhi yetakchi, fikrni aniq-lo'nda bayon qilish ustuvor. Ilmning nihoyasi farovonlik, xorlik ko'rmaslik ekanligi o'quvchiga oson tushunilsin uchun, shuningdek, XX asr boshlaridagi umumiy da'vatkorlikka mos ravishda qalamga olingan. Bu shoirning, yetishib kelayotgan ma'rifatparvarning, jadidning yangiliklardan boxabarligidan darak beradi:

...Ey xaloyiq, bo'lsa farzanding agar,
Ber muallimg'a oni qilmay hazar.

Chunki, umri necha chandon o'lg'usi,
Muruvvat, hurmat farovon o'lg'usi –

Kim, oni ilm-u hunar xor etmagay,
Hech birovga dunyoda zor etmagay.

Mutribo, bo'lsang suxandin lojaram,
O'qumoqni odat etgil dam-badam [6].

Mutrib Xonaxarobiyning shunday she'rlari borki, ular to'lig'icha ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibiga bag'ishlangan. Shuningdek, davr yangiliklari, hurriyat ulug'langan she'rlarida ham maktab ochish, yoshlarga ilm berish masalalari qalamga olinadi:

Muallimlar ochib maktab, berib yoshlarga ogohlik,
Olarga bildirurg'a ilmini jonlar nisor o'ldi [6].

To'lig'icha yangicha ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan ilm egallashga da'vat ruhi yetakchilik qilgan she'ri "Ko'ngluma bir turfa so'z keldi ravon..." deb boshlanadi. Shoir hunarsiz, ilmsiz odamdan foyda yo'qligini, u odob-ikrom nima ekanligini bilmasligini, bunday kishi xor-zor bo'lishi, xalq orasida e'tibori bo'lmasligini qalamga oladi:

Behunar, beilm odamdin ne sud,
Bilmas ul odobi, ikromi, surud.

Dahr aro bo'lg'usi doim xor-zor,
Bo'lmag'ay xalq ichra onda e'tibor...

Ey xaloyiq, sol quloq oqil bo'lib,
Qolmangiz bebahra chun g'ofil bo'lib.

Bersa maktabga kishilar yoshlarin,
Ko'rgay ul sog'-u sarafroz boshlarin [6].

Mutrib o'z davrida yangi ochilgan maktablarga tajribali, "ilmda yakto" muallimlar kelganini olqishlaydi. Yangi ochilgan maktablarni esa jannatga qiyoslaydi. Muallimlar yoshlarni tarbiya qilib, oliy maqomga olib chiqqanidan shodlanadi shoir. Mutrib muallimda yuqoridagi kabi sifatlar borligini olqishlaydi va ular ikki olamda ham manfaat topishini ko'tarinki ruhda bayon etadi:

Ilm aro yakto muallimlar kelib,
Jannatoso necha maktablar ochib.

Yoshlarni tarbiyat birla mudom,
Ayladi har birisin oliy maqom.

Bo'lsa har kimsa muallim bu sifat,
Topgay ikki olam ichra manfaat [6].

Ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibida Mutribning "Ey xaloyiqlar" radifli she'ri o'ziga xosdir. Shoir odatdagiday farzandlarni muallimlarga berishga da'vat qiladi. Ilm-u hunar o'rgansa yaxshi ekanligini tasvirlaydi.

Biroq shoir ifodalaydigan fikrning o'ziga xosligi shundaki, u bilim oluvchi farzandning olim bo'lib, xalq orasida shuhrat topishini istaydi. Bunday kishiga mag'rib-u mashriq qadrdon bo'lishini sharaflaydi:

Agar farzanding olim bo'lsa, xalq ichra topib shuhrat,
Onga mag'rib bila mashriq qadrdon, ey xaloyiqlar.

Alardin ham bori insonga yetgay manfaatlarkim,
Biling ul daryoyi ummon ilmdan, ey xaloyiqlar [6].

Mutrib Xonaxarobiy ijodining boshlarida mumtoz adabiy an'analar asosida she'rlar yozdi. 1915-yillardan boshlab uning she'riyatida yangiliklar kuzatildi. Ayniqsa, 1920-yillardagi she'riyatida ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibi asosiy o'rinni egalladi. She'rlarida yangicha ma'rifatparvarlik g'oyalari birinchi o'ringa chiqdi.

Mutrib Xonaxarobiy davr o‘zgarishlarini olqishlaydi. Yaxshi davrlar kelganini, yurtning barcha joylarida noz-ne’matlar ko‘pligini, farovonlik yuz berganini yozadi. Qari-yu yosh osoyish topgani, ko‘ngli shodlangani, aksincha, qalbi ozorlanmaganidan, ba’zi g‘am chekkan ellar shod-xandon bo‘lganidan quvonadi:

Bilinglar, ey xaloyiq, sizga bu yaxshi davrondur,
Tamomi yurtimizda noz-u ne’matlar farovondur.

Topib osoyishi pir-u juvon, ozurdadil bo‘lmay,
Bari mahzun o‘lan ellar damodam shod-u xandondur [7].

Mazkur she’r 1921-yilda yozilgan. 1920-yilda Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan ag‘darilgan. Bu to‘ntarish natijasida xalqning turmush tarzida nisbatan osoyishtalik, iqtisodiy hayotida sal bo‘lsa-da, oldga siljish ro‘y bera boshlagani shoirni quvontirgan bo‘lishi, tabiiy. Boshqaruvda yangiliklar yuzaga kelgan. Bu masalaga bag‘ishlangan qurultoy bo‘lib o‘tgan. Shahar Ijroiya qo‘mitasi tuzilgan. Mazkur tuzilmalar Mutrib nazdida xalq mushkulini oson etuvchi idoralar sifatida tasvirlanadi. Xonlik boshqaruvidan aziyat chekkan kishilar uchun ushbu yangi tuzilmalar, albatta, mushkulkushod bo‘lib tuyulishi tabiiy edi:

Xudoyim rahm etib bizga, birodarlar bo‘lib yor-u,
Ko‘ring emdi sitamgarlarni, sargardon-u hayrondur.

Bo‘lub qurultoy-u Ijroiya qo‘mita shahar aro barpo,
Bu davlat fayzidin bizlarg‘a har mushkullar osondur...

Mutrib bu shodliklar ortidagi aziyatlarni ham mushohada qilgan, albatta. Xalqning, xon-u amaldorlarning g‘aflatga cho‘mganidan ta’sirlangan. Abdurauf Fitrat “Najot yo‘li” asarida shunday yozadi: “Hayotning (yakkama-yakka) kurash maydonida va jahon xalqlari orasida islom olamining farsax-farsax orqada qolganligini bayon qilishga ehtiyoj yo‘qdur. Biz, turkistonliklar esa boshqa islom jamiyatlariga nisbatan dunyoyi jahon parishonlikka tushib yo‘limizdan adashganmiz. Ajabo, bu parishonlikning sababi nedur?... Millat va vatanlari uchun qayg‘urgan bir toifa bu parishonlikni ilmsizlik va tanballik oqibati deb biladi. Haqiqatan ham, tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizliqdir” [11;27-b.]. Mutrib Xonaxarobiy bu holatni yaxshi anglagan. Ijtimoiy hayotda bo‘lgan she’rda tasvirlangan kabi o‘zgarishlarni Fitrat ta’kidlagan illatlarning yechimi deb o‘ylagan va yangi davrni shu bois ham zo‘r ilhom bilan madh etgan.

Mutrib Xonaxarobiy davr yangilanishlari xususidagi fikrlarni davom ettirar ekan, yurtdoshlarini g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, bedorlikni, izlab topib bo‘lsa-da, hamisha hushyorlikni odat qilishga undaydi. Shuningdek, o‘zni boshqalarga kerakliligini his etishga chorlaydi. Yurt xizmatga chorlasa, hatto joning bila tayyorligingni ko‘rsat, deya nasihat qiladi. Har band yakunida esa bu kun – Xorazm mamlakatining obodlik ayyomi, yurtimizda yaxshilik, bunyodkorlik ayyomi, deya shodligini izhor qiladi:

Xobi g‘aflatni qo‘yub, bedorlig‘ni pesha et,
Just-u jo‘ aylab yana hushyorlig‘ni pesha et.
O‘zni toki barchag‘a darkorlig‘ni pesha et,
Bo‘lsa xizmat, jon bila tayyorlig‘ni pesha et.
Yurtimizg‘a yaxshiliq bunyodliq ayyomidir,
Kishvari Xorazmning obodliq ayyomidir.

Shoir farovon kunlar kelganiga shukrona etishni so‘rar ekan, xalqlarni bir balodan qolganligini, hatto o‘limdan qolganligini, bunda yuz ming oh-u fig‘ondan, sog‘lik-salomatlikda yomon fikrlardan qolganligini e’tirof etadi. Bu band nihoyasida ham bu ayyom Xorazmning obodlik kuni deya quvonchini she’rga solidi:

Shukr eting, ey xalqlarkim, bir balodin qoldingiz,
Qo‘llarida necha tiyg‘i jonsitondin qoldingiz,
Kunda yuz ming martaba oy-u fig‘ondin qoldingiz,
Xo‘b salomatlik aro fikri yomondin qoldingiz.
Yurtimizg‘a yaxshiliq bunyodlig‘ ayyomidir,
Kishvari Xorazmning obodlig‘ ayyomidir.

Xulosa. Mutrib Xonaxarobiy ijodining dastlabki davrida mumtoz adabiy an’analar asosida ijod qildi. Uning 1915-yillardan keyingi ijodida ilm-ma’rifat, yangicha o‘qitish tizimi, yoshlar kamoloti masalalari keng targ‘ib qilindi. Uning hurriyat haqidagi masnaviysida yangi davr g‘oyalari targ‘ib qilingan “O‘ldi”, “Ey xaloyiqlar”, “O‘lmanglar”, “Sevining” radifli g‘azal, musaddas, qasidalari shoirning hozirjavob va is-

te'dodli ijodkorligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, u Xorazm jadidchilik maktabining faol a'zolaridan biri hamdir. Shoir jadidchilik g'oyalarining yoyilishida, yangi maktablar ochilishida jonbozlik ko'rsatgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Tabibiy. Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma, O'zRFA SHI, №1134; Laffasiy Hasanmurod. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari. Tazkira. O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondi №12561. Qayyumiy P.Tazkirayi Qayyumiy. III jildlik. III jild, Toshkent, O'zRFA Qo'lyozmalar instituti, 1998, 599–600-betlar; Bobojon Farroh Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 136–140-betlar.

(2). Pirnazarov M. Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo'li. Filol. fan…nomz…diss., Samarqand, 1973.

(3). Madrimova S. Mutrib Xonaxarobiy va uning adabiy merosi. Filol. fan… falsafa d-ri (PhD) diss., Toshkent, 2021.

(4). Allaberganova A. Mutrib Xonaxarobiy she'riyati lingvopoetikasi. Filol. fan… falsafa d-ri (PhD) diss., Urganch, 2024.

(5). Sharafiddinov O. Yillar va yo 'llar. Adabiyotimizning yarim asri. Toshkent, Badiiy adabiyot, 1967, 172-bet; Mallayev N. Klassik adabiyot boyliklarini chuqur o'rganaylik va keng ommalashtiraylik. "O'qituvchi", 1957, 12-mart soni; Pirnazarov M. Obodlig' ayyomlar. "Guliston", 1957, 7-son, 28-bet.

(6). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.

(7). "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 23-sentabrdagi soni

(8). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 10-sentabr, 19-son.

(9). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.

(10). Yuqoridagi manba.

(11). Odob-axloq kitobi. Abdurauf Fitrat. Najon yo'li. Toshkent, "Yoshlar" nashriyoti, 2023, 27-bet.

(12). "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 4-noyabr soni.

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi erkin tadqiqotchisi; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

XX ASR BIRINCHI YARMI KOREYS ROMAN JANRI BADIIYATI

Annotatsiya. *Ma'lumki, roman adabiyotda katta hajmli asardir. Janr ko'lami va miqyosi jihatidan o'z ichiga ko'plab masalalar, turfa taqdirlar, davrdagi ko'plab muammolarni qamrab olish xususiyatiga ega. Mazkur maqolada koreys adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi hamda taraqqiyot jarayoni ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *pxesol, sosol, tush, motiv, realizm, trilogiya, urush, front, ziddiyat, fojia.*

Абдуллаева Феруза Баходировна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

ПОЭТИКА ЖАНРА РОМАНА ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

Аннотация. *Роман считается большим по объему повествовательным произведением. Благодаря своему жанру и масштабу, он затрагивает множество сюжетных линий, разнообразных персонажей с их сложными судьбами и актуальными для своего времени проблемами. В данной статье на примере корейских романов рассматривается возникновение и эволюция жанра романа в корейской литературе.*

Ключевые слова*: пхэсоль, сосоль, сон, мотив, реализм, трилогия, война, фронт, конфликт, трагедия.*

Abdullayeva Feruza (Freelance researcher at the Higher School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

FIRST HALF OF XX CENTURY KOREAN NOVEL GENRE LITERATURE

Annotation. *It is well known that the novel is a literary work of significant length. Due to its broad scope and scale, it has the capacity to encompass numerous issues, diverse destinies, and various challenges of its time. This article examines and analyzes the emergence and development of the novel genre in Korean literature, based on novels written in the Korean language.*

Keywords*: phaesol, sosol, dream, motive, realism, trilogy, war, front, conflict, tragedy.*

Kirish (Introduction). Adabiyotshunoslik fanida roman janrining paydo bo'lishi haqida turli qarashlar mavjud. Jumladan, arab adabiyotshunos olimasi M.Akbarova: "Roman yangi davr adabiyotida epik janrning katta ko'rinishi hisoblanadi" [1;40-b.], deb fikr bildirgan bo'lsa, jadid harakatining faol targ'ibotchisi Abdurauf Fitrat: "Hayotning belgili bir davrini keng suratda tasvir etib yozilg'on asarga "ro'mon" deyiladir...Ro'monlarda asarning qahramoni, yo qahramonlari qaysi zamonda, qaysi muhitda, qaysi jamiyatda